



CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND CONTEMPORARY TRENDS OF TARGETING IN THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Diyorbek Normurodov

Master's Student in Public Administration

University of World Economy and Diplomacy

Email: muzaffarovichdiyorbek1@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social protection, targeting, conceptual foundations, transparency factors, modern trends, social policy, vulnerable population, social services, digitalization.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article provides a systematic analysis of the conceptual foundations of targeting and transparency within Uzbekistan's social protection system. It also develops proposals and recommendations aimed at improving the effectiveness of the Social Protection Registry, enhancing its development, and strengthening its role in ensuring transparency in social policy implementation. To facilitate the practical implementation of these recommendations, specific conclusions and measures for improving the social protection system are proposed.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMIDA MANZILLIKNI TA'MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Diyorbek Normurodov

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Davlat boshqaruvi yo 'nalishi magistranti

Email: muzaffarovichdiyorbek1@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, manzillilik, konseptual asoslar, shaffoflik omillari, zamonaviy tendensiyalar, ijtimoiy siyosat, ehtiyojmand aholi, ijtimoiy xizmatlar, raqamlashtirish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya tizimida manzillilik va shaffoflik omillarining konseptual asoslari tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek bu siyosat natijasida ijtimoiy himoya reyestri faoliyatini

samarali tashkil etish uning rivojlanishi va shaffoflikni ta'minlashda o'rnini oshirish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish maqsadida aniq xulosalar taklif etilgan.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АДРЕСНОСТИ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ УЗБЕКИСТАНА

Диёрбек Нормуродов

Магистрант направления «Государственное управление»

Университет мировой экономики и дипломатии

E-mail: muzaffarovichdiyorbek1@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная защита, адресность, концептуальные основы, факторы прозрачности, современные тенденции, социальная политика, нуждающееся население, социальные услуги, цифровизация.

Аннотация: В данной статье системно проанализированы концептуальные основы факторов адресности и прозрачности в системе социальной защиты, реализуемой в Узбекистане. Также разработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности организации деятельности Социального реестра, его дальнейшее развитие и усиление роли в обеспечении прозрачности социальной политики. В целях практической реализации данных рекомендаций предложены конкретные выводы и меры по совершенствованию системы социальной защиты.

Kirish. Zamonaviy davrda dunyo aholisi turli qiyinchiliklardan aziyat chekayotgan bir davrda davlatlar o'zining ijtimoiy himoyaga muhtoj aholisi uchun turli imkoniyatlar va qo'shimcha imtiyozlarni taqdim etmoqda. Shu jumladan O'zbekistonda ham ijtimoiy himoya siyosati davlat siyosatining ustuvor vazifasidan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimining samarali faoliyati albatta davlat tomonidan ijtimoiy yordamning to'g'ri shaklda va asl egaloriga yetib borishida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy himoya siyosatida manzillilik tamoyili ijtimoiy yordamni to'g'ri taqsimlashda va byudjet mablag'larining isrof bo'lishida muhim ahamiyat kasb etib uning oldini oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bozor islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida, ayniqsa iqtisodchi olimlar mulohazalarida "ijtimoiy himoya" atam asining turlicha

talqinini uchratish mumkin. Masalan, ayrim mualliflar ijtimoiy himoya deganda, “xodimlarga shaxsiy mehnat ulushi, iqtisodiy erkinligi va tadbirkorligi hisobiga o‘z farovonligini oshirishga teng imkoniyatlar taqdim etuvchi qonuniy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik kafolatlar tizimini” tushunadilar.

Tadqiqot natijalari. Boshqa qator iqtisodchi olimlar fikriga ko‘ra, “bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo‘jalik va ijtimoiy hayotini tashkil etishning tabiiy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi, uning tashkiliy-huquqiy shakllari esa mehnat jarayonining va ishchi kuchi qayta ishlab chiqarishning beto‘xtovligini ta‘minlashga xizmat qiladi”[1. 9-bet]. Xususan bozor iqtisodi sharoitida “ijtimoiy himoya” atamasi turli ma‘nolarda ishlatiladi. Ijtimoiy himoya bu jamiyatning xo‘jalik va ijtimoiy hayotini tashkil etishning huquqiy shakillarini namoyon qiladigan tizim sanaladi. Ijtimoiy himoya tizimi bu davrda tabiiy komponent sifatida shakillangan tizim hisoblanadi.

Asosiy badal asosidagi dasturlar keksalik pensiyalari, nogironlik pensiyalari va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalaridan iborat. 2019-yil may oyidan boshlab pensiya siyosatini yuritish mas‘uliyati yangi tashkil etilgan Ijtimoiy himoya vazirligi zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, undan oldin bu vazifa Moliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan va pensiyalar Pensiya jamg‘armasi orqali boshqarilgan. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 2,62 million kishi keksalik pensiyasini, 371 ming kishi nogironlik pensiyasini hamda 174 ming kishi boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olgan.

Keksalik pensiyasi tizimi uchta asosiy omil bilan belgilanadi: pensiya yoshi, minimal badal to‘lash muddati va pensiya miqdori.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda erkaklar uchun pensiya yoshi 60 yosh, ayollar uchun esa 55 yosh etib belgilangan. To‘liq pensiya olish uchun erkaklar kamida 25 yil, ayollar esa kamida 20 yil ish stajiga ega bo‘lishlari lozim.

Agar fuqaroning ish staji belgilangan me‘yordan kam bo‘lsa, pensiya miqdori amaldagi ish staji yillariga mutanosib ravishda kamaytiriladi. Biroq pensiya olish huquqiga ega bo‘lish uchun kamida 7 yillik ish staji talab etiladi.

Korxonalar yoki tashkilotning qayta tuzilishi yoki yopilishi sababli ishdan bo‘shatilgan xodimlarga, agar ular zarur ish stajiga ega bo‘lsalar, pensiyaga ikki yil oldin chiqish huquqi beriladi. Bundan tashqari, ishdan bo‘shatilgan shaxslarga ishdan bo‘shatish nafaqalari ham to‘lanadi.

Rasmiy pensiya yoshiga yetmasdan oldin tayinlangan pensiyalar bo‘yicha to‘lovlar Mehnat va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan Pensiya jamg‘armasiga qoplab beriladi.[2. 5-bet] Ijtimoiy himoya tizimining yana bir muhim jihati bu pensiya tizimining yo‘lga qo‘yilishida

namoyon bo‘ladi. Pensiya tizimi ijtimoiy himoya tizimining boshlang‘ich va dastlabki tarkib boruvchi qismi sanaladi.

Manzillilik ijtimoiy himoya siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bu konseptual asoslar hisoblanadi. Uning maqsadi ijtimoiy yordamning haqiqatda muhtoj aholiga yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi. Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi avvalo ijtimoiy adolatni ta‘minlash va davlat byudjeti mablag‘larining to‘g‘ri taqsimlanishida namoyon bo‘ladi. Adabiyotlarda ilmiy nuqtayi nazardan manzillilik tamoyili ehtiyojmand aholini aniqlash, baholash va unga mos ravishda yordam, ijtimoiy himoya dasturlarini taqdim etishda namoyon bo‘ladi.

Bozor munosabatlarida taqsimot tengsizlikka qurilgan ekan, jamiyat a‘zolari daromadlari ham notekis bo‘lib, adolatli va adolatsiz tengsizlikni yuzaga keltiradiki, biz bu jarayonda tabiiy va ijtimoiy sabablarni ko‘ramiz. Ma‘lumki, kishilar tabiatan jismoniy va aqliy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ularning ish qobiliyati, bilimi, malakasi, mahorati ishbilarmonligi birligida ko‘rinadi. Lekin kishi qobiliyatining kamol topishi, rivojlanishi va uning yuzaga chiqishi ijtimoiy sabablarga bog‘liq jihatlari ham bor. Jamiyatda inson savodli, qobiliyatli va egallagan malakasiga yarasha ish bilan band bo‘lishi, umuman, foydali faoliyat bilan shug‘ullanishi shart.[3. 6-bet] Buning umumiy ma‘zmoni ham avval inson manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy hayotda munosib o‘rin egallashi uchun shart-sharoitlar yaratish va uning rivojlanishi ehtiyojmand aholini manzilli aniqlash va yordam berishdan iborat.

Ehtiyojmand qatlamni aniqlash va uni davomli moddiy ta‘minotini shakllantirish yuzasidan olim Angus Styuart Diton tadqiqot olib borgan. 2015 yilda “Iste‘mol, kambag‘allik va farovonlikni tahlil qilgani uchun” Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan, amerikalik iqtisodchi olim Angus Styuart Diton iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlaydigan va kambag‘allikni kamaytiradigan iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun birinchi navbatda ahamiyatli omillar sifatida har bir iste‘molchi qanday tanlov qilishini, aholi daromadlari va qiyin vaqtlarda aholi iste‘mol darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qildi.[4. 368-bet] Ehtiyojmand qatlamni aniqlashning bu usulini olim Angus Styuart Diton o‘z nazariyalariga ko‘ra tahlil qilgan va uni taraqqiyotning zamonaviy strategiyasi sifatida baholagan. Ijtimoiy himoya siyosati avvalo inson shaxsining konseptual strategiyalari asosida vujudga keladi.

Mamlakat ishlab chiqarayotgan mahsulotlar tarkibida oltin va paxta kabi mahsulotlar mavjud bo‘lib, ularning eksportini sobiq sovet respublikalari bozorlaridan xalqaro bozorlarga yo‘naltirish nisbatan oson kechdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston yetarlicha rivojlangan va to‘liq shakllangan sanoat tuzilmasiga ega edi, chunki miqyos iqtisodiyotidan samarali foydalanishga intilgan sovet rejalashtiruvchilari yangi zavod va fabrikalarni Markaziy Osiyoning yagona yirik sanoat markazi bo‘lgan Toshkent kabi shakllangan sanoat hududlarida joylashtirgan edilar.

Kirish qismida ta'kidlanganidek, O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorlashtirishga bo'lgan yondashuvi tezkor va to'liq narxlarni erkinlashtirish, iste'molchilar hamda ishlab chiqaruvchilarga beriladigan barcha subsidiyalarni bekor qilish, qat'iy byudjet siyosatini yuritish, pul massasini keskin nazorat qilish, tashqi savdo va kapital harakatini liberallashtirish hamda xususiyashtirishni talab qiluvchi ortodoks modeldan sezilarli darajada farq qilar edi.

O'zbekistonning ushbu yondashuvni qabul qilishga moyil emasligi juda erta davridayoq namoyon bo'ldi, chunki hukumat iqtisodiyotni bosqichma-bosqich transformatsiya qilish siyosatini tanladi va iqtisodiyotga davlat aralashuvini, garchi asta-sekin kamayib borgan bo'lsa-da, davom ettirdi.[5. 3-bet] O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi hukumat iqtisodiyotini shakillantiruvchi asosiy qism sanaladi va hu bois uni takomillashtirish davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Muhokama. Mazkur mamlakat bo'yicha tadqiqot mamlakatning milliy rivojlanish strategiyasi uchun o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator muhim masalalarni yoritishga qaratilgan.

Keyingi bo'lim "Iqtisodiy samaradorlik" mamlakat mustaqillikka erishganidan buyon iqtisodiy o'sish, tengsizlik va qashshoqlik darajasidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi. Ushbu tahlil asosida iqtisodiy o'sishning real va barqaror sur'atlariga erishishni maqsad qilgan, kengaytirilgan ichki investitsiyalarga tayanuvchi hamda tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi "Farovonlikni yaxshilash strategiyasi" tavsiya etiladi. Bunday yondashuv iqtisodiy o'sish natijalarining aholi qatlamlari o'rtasida yanada adolatli taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida yanada kengaytiruvchi fiskal siyosatni amalga oshirish, nisbatan moslashuvchanroq pul-kredit siyosatini yuritish hamda valyuta kursini faol boshqarish bo'yicha asosiy tavsiyalarni taqdim etadi. Ushbu tavsiyalar ichki va tashqi talabga tayangan holda iqtisodiy o'sishning o'rtacha yuqori sur'atlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.[6. 2-bet].

Kambag'allik – individ yoki oilaning asosiy ehtiyojlari ularni qanoatlantirish uchun mavjud bo'lgan mablag'lardan ko'proq bo'ladigan bir holat.[7. 201-bet] Kambag'allik bu ijtimoiy himoyada konsetual hodisaning shakillanishi uchun asos bo'ladi.

Iqtisodchi olim N. Beknozovning fikricha, kambag'allik – kishi o'zining asosiy ehtiyojlari uchun pul mablag'lari yetarli bo'lmagan, mulk va boshqa resurslar bilan nisbatan kam ta'minlangan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining past darajada qondirilishidir.[8. 400-bet]

Agar mehnat bozorida mavjud bo'lgan munosabatlar va zamonaviy ish bilan ta'minlash va ish haqi sxemalari ishchilar orasida bunday yuqori darajadagi qashshoqlikka olib keladigan bo'lsa,

bu tub iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy siyosat choralari yoʻqligi yoki ularning samarasi yoʻqligi va yuqorida aytib oʻtilganlar ushbu masalalarning ilmiy asoslanmaganligidan dalolat beradi.[9. 4-bet]

Kambagʻallik daromad koʻrsatkichlari orqali oʻlchanadi va statistik idoralar tomonidan uy xoʻjaliklarini oʻrganish orqali isteʼmol koʻrsatkichlari aniqlashtiriladi. Barcha kambagʻallik koʻrsatkichlari inson isteʼmolining pul ekvivalenti bilan bogʻliq boʻladi. Chunki odamlarning turli tovar va xizmatlarni isteʼmoli avvalo ularning tibbiy xizmatlarga boʻlgan ehtiyojini qondirilishi bilan bogʻliqdir.[10. 2-bet] Norvegiya xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti tadqiqotchisi, iqtisodchi Daniyar Moldokanovning fikricha, kambagʻallik - bu koʻp qirrali hodisadir. Bu nafaqat odamlarning qancha pul topishini, balki odamlarning uy-joyini bor yoki yoʻqligini, taʼlim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkonini namoyon qiladi.

Xulosa. Oʻzbekistonda ijtimoiy himoya tizimida manzillikni taʼminlashning konseptual asoslari va zamonaviy tendensiyalari mamlakatning Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan chambarchas bogʻliq. U inson huquqlari, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi.

Konseptual jihatdan manzillik yondashuvi universal yordamdan farqli oʻlaroq, ehtiyojlarni aniq baholash, oila va shaxs holatini hisobga olish hamda natijaga yoʻnaltirilgan yordam koʻrsatishni nazarda tutadi. Bu yerda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” kabi raqamli vositalar muhim rol oʻynaydi. U kam taʼminlangan oilalarni aniqlash, dublikatlar va samarasiz xarajatlarni oldini olish imkonini beradi. Mazkur tizim mahalla instituti bilan birgalikda ishlaydi va xalqaro standartlar asosida tezlik bilan shakllantirilmoqda. Zamonaviy tendensiyalar orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega: raqamlashtirish va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining joriy etilishi, oilalarni qizil, sariq va yashil toifalarga ajratish orqali differensial yondashuv, ijtimoiy yordamni bandlik dasturlari bilan integratsiyalash hamda sunʼiy intellekt va katta maʼlumotlar bazalaridan foydalanish. Bu islohotlar nafaqat moddiy yordamni, balki insonning oʻzini oʻzi taʼminlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Natijada, soʻnggi yillarda kam taʼminlangan oilalarga koʻrsatiladigan yordam qamrovi bir necha baravar oshgan.

Umuman olganda, Oʻzbekiston ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda manzillikni taʼminlash strategik ustuvorlikka aylangan. Bu jarayon davom etar ekan, kelgusida yanada samarali, shaffof va inson markazli tizim shakllanishi kutilmoqda. Buning uchun qonunchilikni yanada takomillashtirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va aholining faol ishtirokini taʼminlash muhimdir. Natijada, ijtimoiy himoya nafaqat muammolarni bartaraf etish vositasi, balki aholining farovonligi va mamlakatning barqaror rivojlanishini taʼminlovchi kuchli mexanizmga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shayusupova N.T., Arabov N.U., Nasimov D.A. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. - B. 9.
2. Carraro L. Overview of Social Protection System in Uzbekistan and Assessment of Active Labor Market Policies. Asian Development Bank, 2019. - P. 5.
3. Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent, 2005, - B. 395.
4. Дитон А. Великий побег: Здоровье, богатство и истоки неравенства. -М.: Изд-во Института Гайдара; Фонд «Либеральная Миссия», 2016. - С. 368
5. Cornia G.A. Macroeconomic Policies, Income Inequality and Poverty: Uzbekistan, 1991-2002. Helsinki: UNU-WIDER, 2004. - B. 3.
6. McKinley T., Weeks J. A Proposed Strategy for Growth, Employment and Poverty Reduction in Uzbekistan. - International Poverty Centre, Country Study №12, 2007. - B. 2.
7. Marketing terminlari izohli lug'ati. Asosiy tushunchalar va istilohlar. - T: 2012. - B. 201.
8. N. Beknozov. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: 2005. - B. 400.
9. Разумов А. Бедность в системе отношений на рынке труда: методология анализа, современная ситуация, стратегия преодоления. - М: Автореферат дис. ... док. экономических наук. 2003. - С. 4
10. Молдоканов Д. Три индикатора бедности: черта, глубина и острота. <https://ekonomist.kz/author/moldokanov/page/2/>